

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

QUVATOV ELYOR HAQMURATOVICH

**XALQARO KURASH TURLARI VOSITALARI ASOSIDA
KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04-Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya
nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Quvatov Elyor Haqmuratovich

Xalqaro kurash turlari vositalari asosida kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 3

Куватов Эльёр Хакмуратович

Совершенствование методики развития физической подготовки борцов на основе средств международных видов борьбы 31

Quvatov Elyor Haqmuratovich

Improving the methodology for the developing the of physical preparation of wrestlers based on the means of International wrestling styles 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

QUVATOV ELYOR HAQMURATOVICH

**XALQARO KURASH TURLARI VOSITALARI ASOSIDA
KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04-Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya
nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2023.4.PhD/Ped2328 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kenash veb sahifasida www.jtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Mexriddin Junoydulloyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Dadaboyev Odiljon Jaloliddinovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Aliyev Iskandar Baxromovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti xuzuridagi DSc.03/30.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” “___” soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, veb sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy Tel: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo mamlakatlari orasida yakka kurash sport turlarini yanada rivojlantirish, o‘tkazilayotgan musobaqalar yangi bosqichlarda turli tayyorgarlik turlarini takomillashtirish bilan ifodalanmoqda. Olimpiya kurash sport turlarining ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish sport ixtisosligining boshlang‘ich bosqichidanoq amalga oshirilishi lozimligi, musobaqa faoliyatidagi raqobatning murosasiz o‘tishi yoshlarda sportga qiziqishining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Kurash milliy sport turidagi natijalar ko‘rsatkichlarini oshirishda aynan xalqaro kurash turlari vositalaridan foydalanish, integral tayyorlash tizimini rejalashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Jahonda kurash turlari bo‘yicha raqobatning yuqori darajada rivojlanib borayotgani hozirgi kunda sportchilarni tayyorlashning qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish muammolarini ilmiy jihatdan o‘rganishni talab qilmoqda. Bir qancha soha olimlar tomonidan kurash turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning texnik-taktik harakatlarni bajarishda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq kurash turlari vositalari asosida kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi, kuch qobiliyati va reaksiya tezkorligini takomillashtirishga qaratilgan kurashchilarda maxsus mashqlarni qo‘llagan holda texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirish bo‘yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz miqyosida jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan maqsadli tizimning shakllanishi, yoshlarga ayniqsa sportchilarga berilayotgan e‘tibor, ommaviy sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar ishlab chiqilib ushbu sohani tartibga solishda meyoriy-huquqiy asos hisoblanmoqda. “Kurash milliy sport turini aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, o‘zib kelayotgan yosh avlodda milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish”¹ vazifasi belgilab berilgan. Milliy kurash sport turi bo‘yicha respublika hamda jahon miqyosida o‘tkazilayotgan musobaqalarda bir qancha millat va elat vakillari orasida qiziqishning va raqobatning ortib borayotganligi ushbu sport turining rivojlanishini hisobga olgan holda kurashchilarimizni turli miqyosdagi musobaqalarga tizimli ravishda tayyorlab borish, texnik-taktik harakatlarning bajarish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan to‘g‘risida”, qarori 2021- yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son “Fransiyaning (Parij) shahrida bo‘lib o‘tgan XXXIII olimpiya va XVII parolimpiya o‘yinlarga tayyorgarlik bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2-oktabrdagi PQ-3306-sonli “Kurash milliy sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganligi darajasi. Respublikamiz sport amaliyotida, jumladan, kurash turlarida ham umumiy hamda maxsus ish qobiliyatining asosiy tarkibiy komponentlari – jismoniy sifatlar, funksional imkoniyatlar, texnik-taktik harakatlarini shakllantirish metodlari va vositalari, mashg‘ulot va musobaqa takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020 yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning halqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, qarori 2017- yil 2-oktabrdagi PQ-3306-son “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari yuklamalari ta’sirida organizmda charchash alomatlarining kelib chiqishi, ularni bartaraf etish choralari, ish qobiliyatini tiklash, saqlash va oshirish masalalari yetakchi olimlar va mutaxassislar tomonidan fundamental tadqiqotlar asosida ochib berilgan F.A.Kerimov, Z.S.Artaqov, Z.A.Bakiyev, N.A.Tastanov, M.M.Kirgizboyev, Sh.S.Mirzanov, O.D.Dadaboyev, J.M.Ishtayev, B.B.Odilov, I.B.Aliyev² va boshqalar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida sportning milliy kurash turiga xos xususiyatlariga mos tartibda rivojlantirish sirlari, ish qobiliyatining umumiy (aerob) va maxsus (anaerob) chidamkorlik bilan uzviy bog‘liqligi tegishli manbalarda o‘z ifodasini topgan. Kurashchilar ish qobiliyatining ayrim komponentlari, jumladan, jismoniy va texnik tayyorgarlik, ularni shakllantirish masalalari yurtimiz mutaxassis olimlari tomonidan ham tadqiq qilingan, maqolalar chop etilgan, dissertatsiyalar va monografiyalar tayyorlangan A.A.Karelin, V.Lyax, G.S.Tumanyan, V.N.Platonov, V.Y.Verxoshanskiy, V.P.Nikiforova.³ Shu bilan bir qatorda, xorijiy olimlardan

² Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati/ -Toshkent: O‘zDJTI. Nashriyot bo‘limi, 2005.- B. - 240-245.; Artaqov Z.S. Юкори малакали белбоғли курашчиларда статик ва динамик харакатлар таъсирида мувозанат саклаш имконияти //Фан – спортга, 2018, №3, - С. 54 -60.; Бакиев З.А. Керимов Ф.А. Инновационны е технологии в подготовке квалифицированных борцов на основе системного анализа деятельности спортсменов и тренеров с учетом уровня их спортивного мастерства// Шаг в науку // Материалы IV научно-практической конференции молодых ученых (II всероссийской) Москва, 2020. – С. 328-334.; Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati/ Darslik. “Sano-standart” Toshkent, 2017. - B.193-205.; Kirgizboev M.M. Эффективность распределения тренировочной нагрузки в микроциклах с преимущественной направленностью в подготовительном периоде годичного цикла спортсмена по белбогли кураш в возрасте 18-21 года // Фан – спортга, 2019, №4, Чирчик, - С. 37-42.; Мирзанов Ш. Белбоғли курашга хос куч қобилиятини махсус тренажерларда ривожлантириш самарадорлиги ва уни компьютерлаштирилган ўлчов ускунаси ёрдамида баҳолаш афзаллиги // Фан – спортга, Чирчик, 2019, №3, - Б.27-30.; Дадабаев О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлиги концепцияси/ Пед. фан. док. дис. Автореферати(ДСс) – Чирчик: Типографф, 2021. – 78 б;

³ Карелин А.А. Система интегральной подготовки высококвалифицированных борцов. СПб., 2002. - 47 с.; Лях В. Координационные способности: диагностика и развитие.- Москва: ТВТ Дивизион, 2006. - С.168-175.; Туманян Г. С. Стратегия подготовки чемпионов: настольная книга тренера / Г. С. Туманян. - М.: Советский спорт, 2006. - 494 с.; Платонов, В.Н. Спорт высших достижений и подготовка национальных команд к Олимпийским играм. Отечественный и зарубежный опыт: история и современность / В.Н. Платонов. – М.: Советский спорт, 2010. – 312 с.; Верхошанский В.Ю. Основы специальной силовой подготовки в спорте/ 3-е изд. – Москва: Советский спорт, 2013.- С.156-161.; В.П.Никифорова Современный подход к спортивному отбору детей //Актуальные вопросы спортивной психологии и педагогики. 2024. Т. 4,№ 1. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 102-106.

L.F.Monteiro, P.Hirtz, W.Starosta, S.Kuzmiski, A.Kruszeshski, M.Kruszeshskilar⁴ tomonidan kurashchilarda raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddatini ifodalovchi maxsus ish qobiliyatining statokinetik turg‘unlik (muvozanat saqlash turg‘unligi) bilan bog‘liqligi va uni rotatsion-trenajer (aylanma harakatlanuvchi trenajer) va aylanma harakat mashqlari yordamida rivojlantirish imkoniyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsada, kurash turlari vositalari asosida kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar orqali yetarli darajada yoritilmaganligi aniqlandi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, jismoniy sifatlarni namoyon etilishini, balki sportchini tanlagan sport turida istiqbolligini tashxis qilishda va professional sportga saralash masalalari dolzarbligicha qolmoqda, bu esa ushbu yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyatini kelmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari konsepsiyasi va istiqbolli rejasida V.1/34 “Kurash sport ta‘lim muassaslari mashg‘ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xalqaro kurash turlari vositalari asosida kurash milliy turidagi sportchilarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tafsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kurashchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun ertalabki hamda kechki mashg‘ulotlarga xalqaro kurash turlari vositalarini ixtisoslik sport turidan kelib chiqib taqsimlash;

sport takomillashuv bosqichidagi kurashchilarni tayyorlashda sambo, dzyudo sport turlarining maxsus mashqlaridan foydalangan holda mashg‘ulot metodikasini ishlab chiqish;

kurashchilarning mikrosikli mashg‘ulot rejasiga muvofiq funksional holatini nazorat qilishda jismoniy ishchanlik darajasi, aerob imkoniyatlari, mashg‘ulot muddatlari, adaptatsion zaxiralari, gemodinamika ko‘rsatkichlarini aniqlash;

kurashchilarni pedagogik testlar orqali jismoniy sifatlari, funksional imkoniyatlar, texnik-taktik harakatlarini shakllantirish holatini oshirish daturini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida ta‘lim olayotgan sport takomillashuvi bosqichidagi kurashchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoni olingan.

⁴ Monteiro L.F. Structure et Cont Energetiques des Combats de Judo //Poster presentations judo Conference, - Munich, Germany. 24 Yuly 2001. - P.24-25.; Hirtz P., Starosta W. Sensitive and critical periods of motor co-ordination development and its relation to motor learning //Journal of human kinetics. – 2002. – T. 7. – C. 19-28. Kuźmicki S., Kruszewski A., Kruszewski M. The effects of body mass reduction on the anaerobic power and selected somatic characteristics of Greco-Roman wrestlers //Biomedical Human Kinetics. – 2023. – T. 15. – №. 1. – C. 35-42.

Tadqiqotning predmetini xalqaro kurash turlari vositalari asosida kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirish usullari tashkil qiladi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va umumlashtirish, anketa so'rovnomasi, pedagogik nazorat, kurashchilarning antropometrik va funksional ko'rsatkichlari asosida jismoniy tayyorgarligi rivojlantirish, pedagogik testlash, ekspert baholash uslubi, matematik-statistik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sport takomillashuv bosqichidagi sportchilarning xalqaro va respublika musobaqalariga tayyorlashda sambo va dzyudo sport turlarining o'quv-yig'in mashg'ulot dasturlaridan model sifatida foydalangan holda (ertalabki hamda kechki) mashg'ulotlar rejasini optimal taqsimlash hisobiga sport formasini yuqori darajada saqlash imkoniyatlari oshirilgan;

sport takomillashuv bosqichidagi kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik dinamikasini oshirishda mashg'ulot jarayonlaridagi maxsus tayyorgarlik mexanizmini xalqaro kurash turlari uslubiyatiga moslagan holda mashqlar kompleksidan oqilona foydalanish asosida kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

kurashchilarning haftalik mikrosikli mashg'ulot rejasiga muvofiq funksional holatini nazorat qilishda jismoniy ishchanlik darajasi, aerob imkoniyatlari, mashg'ulot muddatlari, adaptatsion zaxiralari, gemodinamika ko'rsatkichlarini istiqbolli fiziologik tashxislash hisobiga organizmni qayta tiklanish imkoniyatlari oshirilgan;

kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda sport kurashlari turlari klasifikatsiyasidagi texnik usullarni (yelkadan, beldan, ko'krakdan oshirib tashlash) qo'llash hisobiga musobaqa jarayonlarida yuqori amplitudada bajariladigan texnik harakatlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kurashchilarda yoshga qarab morfologik va funksional ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda o'quv-yig'in mashg'ulotlariga xalqaro kurash turlari vositalarini muvofiqlikda ertalabki hamda kechki mashg'ulotlari ishlab chiqilgan;

sport takomilashuvi bosqichdagi kurashchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar mexanizmi ishlab chiqilgan;

tayyorgarlikning yillik sikllarida kurashchilarning maxsus jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda sambo, dzyudo va kurash turlarida tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan.

kurashlari turlarida texnik usullardan (yelkadan, beldan, ko'krakdan oshirib tashlash) ni qo'llash hisobiga musobaqa jarayonlarida yuqori amplitudada bajariladigan texnik harakatlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi metodologiyasi (bilishning dialektik metodi) hamda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi respublikamiz hamda chet el olimlari, shuningdek, xizmat ko'rsatgan amaliyotchi murabbiylarning fikr-

mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot vazifasining son va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun tanlangan vositalar va ularni qo'llash uslublarining ilmiy asoslanganligi ushbu sohadagi ma'lumotlarni, nazariy bilimlarni boyitish va kengaytirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar amaliyotchi murabbiylarga kurashchilarning mashg'ulotlarini tashkil etishda yuklamalarni meyorlash, kurashchilarni sportda saralab olish maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish uchun ishonchli testlardan foydalanish, tayyorgarlikning turli davrlari va bosqichlaridagi mikrosikllarni tuzishda mashg'ulot variantlarini qo'llash, texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirish jarayonini optimallashtirishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro kurash turlari vositalari asosida kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirishdan olingan natijalar asosida:

sport takomillashuv bosqichidagi sportchilarning xalqaro va respublika musobaqalariga tayyorlashda sambo va dzyudo sport turlarining o'quv-yig'in mashg'ulot dasturlaridan model sifatida foydalangan holda (ertalabki hamda kechki) mashg'ulotlar rejasini optimal taqsimlash bo'yicha takliflar (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus vazirligining 2021 yil 20-oktabrdagi 441-son buyrug'iga asosan 441-026-raqamli guvohnoma). Natijada, kurashchilarni saralash va tanlab olish imkoniyati 12 % ga yaxshilangan;

sport takomillashuv bosqichidagi kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik dinamikasini oshirishda mashg'ulot jarayonlaridagi maxsus tayyorgarlik mexanizmini xalqaro kurash turlari uslubiyatiga moslagan holda mashqlar kompleks dasturi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi mashg'ulot jarayonlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 27-iyundagi 03-16/6450-son ma'lumotnomasi). Natijada, kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi 4,4%-5,7% ga, tezkor-kuch, kuch, chidamlilik sifatleri 12,2% ga, hujum harakatlarning umumiy natijaviyligi 12,5 % ga oshgan;

kurashchilarning haftalik mikrosikli mashg'ulot rejasiga muvofiq funksional holatini nazorat qilishda jismoniy ishchanlik darajasi, aerob imkoniyatlari, mashg'ulot muddatlari, adaptatsion zaxiralari, gemodinamika ko'rsatkichlarini istiqbolli fiziologik tashxislash bo'yicha taklif va tavsiyalar Sirdaryo viloyati yakka kurash turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi kurash mashg'ulotlariga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024 yil 27-iyundagi 03-16/6450-son ma'lumotnomasi). Natijada, kurashchilarning 100 metr masofaga yugurish bo'yicha natijalar 8-12 % ga, 14 marta baland turnikda tortilish bo'yicha esa natijalar 8-10 % ga,

gimnastika narvoniga osilgan holda oyoqlarni 90⁰ ga ko'tarish bo'yicha natijalar 12-14 % ga yaxshilangan;

kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda sport kurashlari turlari klasifikatsiyasidagi texnik usullarni (yelkadan, beldan, ko'krakdan oshirib tashlash) qo'llash bo'yicha tavsiyalar Navoiy Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi dzyudo mashg'ulotlariga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024 yil 27-iyundagi 03-16/6450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kurashchilarda tashlash 11,3 % ga, 3x8 manekenini otish mashqi 4,7 % ga, egilgan holda manekenini 10 marta otish natijalari 13 % ga o'sgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda, 6 ta ilmiy-amaliy anjuman to'plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishida kirish, 4 ta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 111 betni tashkil etib, 15 ta jadval, 3 ta rasm va joriy etish dalolatnomalarini o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqotdan olingan natijalarining ishonchiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Milliy va xalqaro sport turlarini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari**" deb nomlangan birinchi bobida O'zbekistonda milliy kurash turlarining rivojlanish bosqichlari, o'rta osiyo davlatlarida kurash turlarining tarixi, Xalqaro kurash turlari bilan shug'ullanuvchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish bosqichlari, kurashchilarni tayyorlash jarayonida xalqaro kurash turlari vositalarining tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, kurashchilarning musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish va tayyorgarligini rivojlantirish asoslariga oid manbalar o'z ifodasini topgan.

Hozirgi vaqtda yakka kurash sport turlarining yunon-rum kurashi, sambo, dzyudo, erkin kurash turlari bir qancha olimlar F.A.Kerimov, Z.A.Bakiyev, Sh.A.Mirzakulov, Sh.S.Mirzanov, Z.S.Artikov tomonidan chuqur o'rganilgan. Kurashda texnik va taktik

harakatlarni qanday ketma-ketlikda o'rgatish, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan kurash usullari ham umumlashtirildi. O'zbeklar orasida kurash muhim madaniy meros bo'lib, unda nafaqat yoshlar uchun tarbiyaviy, balki yuksak madaniyat va ma'naviyat soxasini ham o'z ichiga qamrab oldi. Jismoniy tarbiyaning milliy vositalari yoshlarning jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish nuqtai nazaridan ham, xalq sport turlari bilan shug'ullanuvchilarning sog'ligini yaxshilash nuqtai nazaridan ham asosiy pedagogik muammolarni hal qilishda yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega.

Sportchini texnik-taktik jihatdan tayyorlash uchun musobaqa faoliyati xususiyatlarini doimiy ravishda o'rganib borish talab etiladi. Musobaqalardagi g'alabali yurishlarni tavsiflovchi asosiy omillarni o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining doimiy ravishda tahlil qilinganda musobaqa faoliyati to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olishga tinimsiz yondoshuv hamda tezkor nazorat o'rnatish lozim, bu musobaqalarda qarorlar qabul qilish uchun miqdoriy axborotlardan tezkor foydalanish imkoniyatlarini beradi (A.A.Kolomeychuk, S.V.Yeregina, V.Lyax).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, kurash turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlashga bag'ishlangan ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilib, shuni ta'kidlash kerakki, yakka kurash turlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tendentsiyasiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Malakali murabbiylar rahbarligida kurashchilarni tayyorlashda milliy va xalqaro kurash turlari o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash lozim. Jismoniy tarbiya va sportning milliy turlarining rivojlanishi geografik sharoitlar tufayli bir-biridan ajratilgan bo'lsada, kurashning ko'plab turlari asosan bir-biriga va uning xalqaro turlariga o'xshashliklari, kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish asosida xalqaro kurash turlari vositalarin asosida tayyorlash metodikasi o'rganilgan adabiyotlar tahlil qilishimiz natijasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligi o'z isbotini topdi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot uslublari, va tashkil etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uslublari, xalqaro kurash amaliyotida keng joriy etilgan pedagogik testlar, mohiyati va ularni qo'llash texnologiyasi yoritilgan. Joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba muddatlari, sanalari, tajribaning dasturi, nazorat va tajriba guruhlarida o'tkazilgan mashg'ulotlarning mazmuni, ularning farqi, tajriba guruhida qo'llanilgan mashqlar majmualari, ularni qo'llash tartibi, takrorlashlar soni va boshqa shart-sharoitlar ochib berilgan.

2020-2023 yillar davomida Qarshi olimpiya va paralimpia sport turlariga tayyorlash markazida, kurashchilarning jismoniy rivojlanish darajasi, ular organizmining funksional holati va mashg'ulot jarayonlari pegaogik kuzatuv ishlari amalga oshirildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tashkilotlarda xalqaro kurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi 42 nafar 16-18 yoshli yakkakurashchilar pedagogik tadqotimizga jalb qilindi. Pedagogik tajriba 2022 yilda Qarshi olimpiya va paralimpia sport turlariga tayyorlash markazida o'tkazildi. Tajriba tadqiqotlari 3 ta bosqichda bir yil davomida amalga oshirildi. Pedagogik tajribada turli sport malakasiga ega 42 nafar yakkakurashchi qatnashdi: SU-4, SUN-10, I sport razryadi-10. II sport razryadi 18

nafar kurashchilar. Tajriba va nazorat guruhlari tarkibiga 2 nafar sport ustasi, 5 nafar sport ustaligiga nomzod, 5- nafar I razryadga ega 9- II sport razryadi sportchilar kirdi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqotlarini tashkil etish 3-ta bosqichda amalga oshirildi: I bosqichda (2021-yil yanvar-dekabr oylari) mavzuga oid mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar o'rganildi va tahlil qilindi. Kurashchilarning jismoniy xususiyatlarini, tana vaznining tarkibiy tarkibini aniqlash uchun tibbiy-biologik testlar hamda malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlash uchun pedagogik testlar o'tkazildi. Funktsional tayyorgarlikni baholash uchun etakchi sportchilarni ajratib ko'rsatish bilan sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini aniqlash amalga oshirildi, shuningdek, jismoniy va funksional tayyorgarlik, aerobik imkoniyatlar darajasida kamchiliklarga ega bo'lgan kurashchilar aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini aniqlandi. Tadqiqotdan olingan jismoniy sifatlar ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida kurashchilarni tayyorlashning tajriba dasturini ishlab chiqish uchun sharoit yaratildi va miqdoriy xususiyatlar aniqlandi.

Ishning ushbu bosqichida 30 nafar murabbiyning sportchilarning jismoniy tayyorgarligining turli jihatlarini tavsiflovchi ishlab chiqilgan testlar bo'yicha so'rovnomalar natijalari ko'rib chiqildi, shuningdek, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi namoyon bo'lishi o'rtasidagi munosabatlar darajasi aniqlandi.

II bosqichda (2022-yil yanvar-dekabr oylari) Asosiy tajribada har biri 21 kishidan iborat ikkita teng huquqli kurashchilar (nazorat va tajriba guruhlari) guruhlariga ajratildi. Shu bilan birga, nazorat guruhi sportchilari an'anaviy uslubiyoti bo'yicha mashqlantirildi va tajriba guruhi kurashchilari, xuddi shu umumiy yuklama hajmiga teng bilan, sambo vositalarini o'z ichiga olgan holda biz ishlab chiqqan dastur bo'yicha mashq qildilar. Tajriba Qarshi olimpia va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida olib borildi. Nazorat va tajriba guruhlarining barcha malaka darajasi, kurash turi bo'yicha bir xil bo'lgan sportchilar ishtirok etdi. Har ikki guruh kurashchilarining jismoniy tayyorgarligi vaqti-vaqti bilan nazorat qilib borildi. Tadqiqot davomida pedagogik testlar o'tkazildi. Jami 3 marotaba qayta testlash o'tkazildi, so'ngra olingan ma'lumotlarni taqqoslandi va tahlil qilindi. Milliy kurash turlari – kurash va sambo kurash vositalaridan foydalanishning maqbul nisbatiga qaratilgan tajriba metodologiyaning strukturasi va mazmuni shakllantirildi.

III bosqichda (2023-yil yanvar-sentabr oylari) mashg'ulot vositalaridan foydalangan holda tajriba guruxida natijalarni samarasi isbotlandi va amaliyotga joriy etildi va asoslandi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida olingan natijalar va ma'lumotlar tahlil qilindi va umumlashtirildi, xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tajribadan olingan ma'lumotlar matematik-statistik uslublaridan foydalangan holda qayta ishlab chiqildi, ilmiy-uslubiy adabiyotlar ma'lumotlari umumlashtirildi. Dissertatsiyaning asosiy holatlari va matni rasmiylashtirildi.

Dissertatsiyaning **“Kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirishning uslubiy shakllari”** deb nomlangan uchinchi bobida Xalqaro va milliy sport turlari – kurashga ixtisoslashgan sportchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, yoshi xususiyatlarini hisobga olgan holda qiyosiy baholash,

kurashchilar funksional tayyorgarligining fiziologik mezonlari ular tanlagan sport turidagi istiqbollarni prognoz qilish mezonlari sifatida, kurashchilar, sambochilar va dzyudochilarning somatoskopik ma'lumotlarning qiyosiy tavsifi, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini dastlabki bosqichda baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Biz jismoniy rivojlanishni qiyosiy baholash uchun 5-8 yil davomida dzyudo va sambo kurash turlari bilan muntazam shug'ullanib keladigan sport ustaligiga nomzod (SUN) va sport ustasi (SU) bo'lgan 42 nafar sportchini tekshiruvdan o'tkazdik. Tananing barcha o'lchamlariga asoslanib, umumiy jismoniy rivojlanishni baholash amalga oshirildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish asnosida kurashchilar guruhida tana uzunligi o'rtacha - 172,68 sm ekanligi aniqlandi. Ammo tana uzunligi bir xil bo'lgani bilan, tana vazni va ko'krak qafasi aylanasi bo'yicha farqlar mavjudligi kuzatildi. Yengil vaznga ega dzyudochilarning ko'krak qafasi aylanasi ham sambochilarga qaraganda kichikroq ekani kuzatildi. Tana nisbatlarida o'xshashliklar aniqlangan. Ayrim uzunlik o'lchamlari, ya'ni yelka, bilak, boldir uzunligi, bosh, bo'yin, boldir o'lchamlari aylanasi, yelka kengliklari hammasidan ham ko'ra barqaror bo'lib chiqdi.

Panjalarining o'lchov xususiyatlarida o'zgaruvchanlik aniqlandi – diapazonda o'rtacha og'ish o'zgaruvchanligi 1,20 dan 9,90 gacha boradi. Taqqoslanayotgan guruhlardagi yog' qatlamlarining o'lchamini baholash teri ostidagi yog' qatlamining miqdoriy taqsimotda bir maromdaligini ko'rsatdi, kurak ostidagi yog' qatlamining qalinligi bundan mustasno. Sambochilarda qatlamning qalinligi 9,05+2,39, dzyudochilarda esa bu ko'rsatkich 7,96+2,33 ni tashkil etdi.

1-jadval.

Kurashning har xil turlariga ixtisoslashgan sportchilar tanasi ayrim o'lchamlarining guruh ichidagi o'zgaruvchanligi

Belgilari	Parametrlar	Sambo n=14	Dzyudo n=14	Kurash n=14
Uzunlik: yelka	M±m (sm)	32,80±0,36	34,14±0,36	33,30±0,40
	σ	1,69	1,55	1,79
Bilak	M±m (sm)	28,30±0,47	28,71± 0,30	29,30±0,88
	σ	2,19	1,28	3,95
Panjalar	M±m (sm)	21,00±0,36	21,71±0,50	20,70±0,27
	σ	1,67	2,12	1,19
Son	M±m (sm)	42,90±0,89	44,86±1,57	40,30±0,65
	σ	4,16	6,69	2,49
Boldir	M±m (sm)	43,30±1,12	41,71±1,02	44,10±0,23
	σ	5,24	4,33	1,04
Qorin	M±m (sm)	83,20±1,43	75,40±1,10	76,13±0,47
	σ	6,71	4,67	2,09
Yelkalar	M±m (sm)	34,87±0,73	32,37±0,56	33,18±0,36
	σ	3,42	2,38	1,60
Bilaklar	M±m (sm)	29,78±0,37	27,20±0,38	27,63±0,25
	σ	1,75	1,60	1,11
Son	M±m (sm)	57,50±1,02	51,20±0,50	56,88±0,64
	σ	4,80	2,14	2,85

1-jadval davomi.

Boldir	M±m (sm)	38,16±0,57	36,25±0,47	36,93±0,40
	σ	2,70	1,98	1,79
Yelka kengligi	M±m (sm)	45,40±0,67	42,40±0,57	42,68±0,36
	σ	3,14	2,42	1,61
Diametrlari: O'rta ko'krak ko'ndalangi	M±m (sm)	30,10±0,55	27,40±0,41	28,50±0,31
	σ	2,59	1,74	1,41
Tos va son suyaklari	M±m (sm)	28,00±0,46	28,20±0,43	26,50±0,34
	σ	2,14	1,83	1,50
O'rta ko'krak sagittal	M±m (sm)	21,30±0,51	19,40±0,18	19,88±0,51
	σ	2,41	0,75	2,26
Yelkaning distal qismi	M±m (sm)	7,59±0,27	7,39±1,28	6,26±0,28
	σ	1,29	5,46	1,27
Sonning distal qismi	M±m (sm)	11,24±0,42	11,65±1,76	9,71±0,34
	σ	1,79	7,45	1,51
Yog' qatlamlari ZPP	M±m (sm)	6,05±0,44	6,06±0,65	5,93±0,38
	σ	2,06	2,77	1,71
Kurakosti	M±m (sm)	7,68±0,66	6,50±0,46	6,93±0,30
	σ	3,10	1,97	1,39
Yonboshga	M±m (sm)	8,37±0,56	6,44±0,68	6,93±0,36
	σ	0,31	0,45	0,23
ZPG	M±m (sm)	7,83±0,50	7,00±0,66	6,57±0,50
	σ	2,34	2,81	2,23

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, tananing ayrim o'lchamlari va ularning nisbatlari hamda ko'krak qafasi aylanasi genetik jihatdan aniqlangan morfologik belgilarga oiddir. Kurashning 3 turi bo'yicha kurashchilarning morfometrik ko'rsatkichlari tahlili o'tkazildi. Sambo, dzyudo va kurash turlarida shug'ullanuvchilarning qorin, yelka, sonning aylana o'lchamlari, kurakosti yog' qatlami qalinligi, yelka, panjalar va son uzunligi guruhlararo taqsimotlarning xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu belgilarning o'zgarish ko'lami bilak, boldir uzunligi, bo'yin aylanasi, o'rta ko'krak, tos va son suyaklari ko'ndalang diametri va yelkaning orqa yuzasidagi yog' qatlamining qalinligi uchun xosdir (1-jadvallar). Bu belgilarga, ehtimol, sport ixtisosligining o'ziga xos xususiyatlari, mashg'ulot rejimlarining xarakteri va texnik hujum harakatlarining o'ziga xos uslubini tanlash kabi omillar ko'proq ta'sir qiladi. Shu bilan birga yuqori malakali kurashchilarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish davomidagi va tiklanishdan keyingi jismoniy ish qobiliyatining ko'rsatkichlari nazorat qilib borildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sportda takamulashuvi bosqichdagi kurashchilarning jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish davomidagi va tiklanishdan keyingi jismoniy ish qobiliyatining ko‘rsatkichlari

№	F.I	Razryad	Yuklama quvvati-kg/m/min		Jismoniy ish qobiliyati kg/m/min		O‘TS	GST	KMI	
			Yuk № 1	Yuk № 2	PWC kg/m/min	PWC - vatt			litr	Absolyut
1	Q.F	Su	1249,9	1581,1	1728,9 (yuqori)	288,1 (yuqori)	3,8	98,6 (yuqori)	4,846	52,8 (past)
2	T.J	Su	718,1	949,4	1280 (o‘rtachadan yuqori)	214,0(o‘rtadan yuqori)	3,9	111,9 (yuqori)	3,66	59,1 (o‘rta)
3	M.J	Sun	998,5	1188,3	1273,7 (o‘rtadan past)	212,2 (o‘rtadan yuqori)	4,4	110,29 (yuqori)	3,87	56,57 (o‘rta)
4	D.F	Su	684	1072,8	2040,7 (yuqori)	340,1(yuqori)	3,9	129,3 (a‘lo)	5,57	80,5 (a‘lo)
5	X.A	Su	984,4	1497,9	1504,1 (yuqori)	256,6 (yuqori)	5,6	120 (a‘lo)	5,38	73,3 (a‘lo)
6	Q.D	Sun	795	1012,6	1269,7 (o‘rtadan past)	200,0 (o‘rtadan past)	4,4	123,60 (a‘lo)	4,30	67 (a‘lo)
7	T.M	Sun	1031,15	1139,2	1278,1 (o‘rtadan past)	203,0 (o‘rtadan past)	5,2	120,9 (a‘lo)	3,74	51,2 (past)
8	S.K	Sun	824,0	1026,8	1285,9 (o‘rtadan yuqori)	204,9 (o‘rtadan past)	3,6	133,9 (a‘lo)	4,41	64,3 (yaxsh)
9	N.T	Sun	1059,17	1351,9	1820,4 (yuqori)	303,4 (yuqori)	3,9	106,3 (yuqori)	5,01	70,4 (a‘lo)
10	S.K	Sun	978,4	1278,7	1648,0 (yuqori)	274,6 (yuqori)	3,9	113,0 (yuqori)	4,66	58,6 (a‘lo)
11	S.R	Sun	993,1	1174,5	1243,4 (o‘rtadan past)	207,2 (o‘rtachadan past)	3,8	118,5 (yuqori)	3,80	52,2 (past)
12	T.A	Sun	990,7	1245,2	1576,0 (yuqori)	262,6 (yuqori)	4,8	118,1 (yuqori)	3,919	52,5 (past)

***Izoh:** SU-sport ustasi SUN- sport ustaligiga nomzod

Ta’kidlash joizki, sambo, dzyudo va kurashchilari Garvard step-testi indeksi bo‘yicha a‘lo va yuksak natijalarni ko‘rsatishdi. Bu esa, o‘z navbatida, sportchilarimizning yaxshi tayyorgarlik ko‘rishganidan darak beradi. Eng ko‘p ma’lumot beradigan testlardan biri, bu – kislorodning maksimal iste’moli (KMI) bo‘lib, u nafaqat organizmning aerob va anaerob imkoniyatlarini, balki sportchilar organizmining mashqlarga chidamlilik darajasini ham tavsiflaydi. Bizning tadqiqotimizda kislorodning maksimal iste’moli bilan jismoniy ish qobiliyati darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlangan.

Kurashchilarning aksariyati, ya’ni yuqori jismoniy ish qobiliyatini namoyon etgan sportchilar yuqori KMI ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi, lekin bu holat

kurashchilarda har doim ham kuzatilmaydi. Masalan, yuqori jismoniy ish qobiliyatini namoyon etgan kurashchilardan Dav-ovda KMI 80,5 ml/min/kg, Xol-yevda - 73,3 ml/min/kg, Nor-yevda - 70, 4 ml/min/kg, Quv-vda esa - 68kg/min/kgni tashkil etgan. 2 nafar kurashchida KMI past ko'rsatkichlarga egaligi aniqlangan – Tax-vda 52,5ml/min/kg, Qur-vda esa - 52,8 ml/min/kgni tashkil etgan.

Biroq, ayni paytda ular sportchilarning yuqori jismoniy ish qobiliyatini namoyon etishgan. Bu esa, o'z navbatida, KMI ahamiyatini oshirish uchun ushbu sportchilarning mashg'ulotlar jarayoniga aerob yo'nalishidagi mashqlarni kiritish zarurligini ko'rsatadi. Musobaqalar paytida esa ushbu sportchilarda aerobik imkoniyatlar yetishmasligi sababli musobaqalarda yuqori sport natijalarga erishish imkoniyatlari pasayishi kuzatildi. Yuqoridagi olingan ma'lumotlarga asoslanib kurashchilarni xalqaro kurash turlariga tayyorlash tizimida texnik harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan xatolarni ham inobatga olish lozim. Kurash turlarida uchraydigan xatolar o'z vaqtida bartaraf etilmasa keyinchalik sportchilarda texnik barqarorlikka erishish imkoniyati kuzatilmaydi.



1-rasm. Xalqaro kurash turlarida texnik harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan xatolar

Kurash turlarida texnik mahoratni oshirish uchun harakatlarni bajarish vaqtida harakatlanishdagi xatolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni paydo bo'lish sabablini bilish muhim ahamiyatga ega. Bunday xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish, ko'p jihatdan texnik takomillashtirish jarayoni samarasiga sabab bo'ladi. Harakatlarni o'rgatishda yuzaga keladigan hamma harakatlanish xatolari bartaraf etish uchun uslbiy qoidalar tavsiya etildi (1-rasmga qarang).

Sambo, dzyudo va kurashchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun ikki haftalik o'quv-mashg'ulot yig'ini rejalashtirish

Hafta kunlari	Birinchi hafta						Ikkinchi hafta					
	Ertalabki			Kechki			Ertalabki			Kechki		
	Sambo	Dzyudo	Kurash	Sambo	Dzyudo	Kurash	Sambo	Dzyudo	Kurash	Sambo	Dzyudo	Kurash
Dush	UJT	UJT	UJT	MJT	MJT	MJT	UJT	UJT	UJT	MJT	MJT	MJT
Sesh	TTT	MJT	MJT	MJT	TTT	TTT	UJT	TTT	MJT	MJT	MJT	TTT
Chor	MJT	S+K	MJT	TTT	TT	TTT	TTT	TT	TTT	MJT	S+K	MJT
Pay	D+K	MJT	S+D	TT	TTT	TT	TT	TTT	TT	D+K	MJT	S+D
Juma	TTT	TTT	TTT	UJT	UJT	UJT	UJT	UJT	UJT	TTT	TTT	TTT
Shan	TTT	TTT	TTT	Bel-v	Bel-v	Bel-v	TTT	TTT	TTT	Bel-v	Bel-v	Bel-v
Yak	Dam olish: sauna, massaj, sayr											

Izoh: D+K – Dzyudo yoki kurash mashqlarini bajarish; S+K - Sambo yoki kurash mashqlarini bajarish; S+D - Sambo yoki dzyudo mashqlarini bajarish; Bel-v – bellashuv; TT – tiklanuvchi tadbirlar.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, sambo, dzyudo va kurashchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun ikki haftalik o'quv-mashg'ulot yig'inini na'munaviy rejasi ishlab chiqildi. Hafta davomida faol dam olish ya'ni sambochilar kurash yoki dzyudo mashqlarini bajarish orqali organizmini tiklanishiga e'tibor qaratildi. Hafta kunlarida MJT, TTT va UJT turlari rejalashtirilib integral mashg'ulotlar olib borildi. Bu esa, kurash turlarida bir vaqtning o'zida barcha tayyorgarlik turlari bilan sambo, dzyudo va kurash turlari vositalarini o'zlashtirish imkoniyati oshiriladi.

Sport takomillashuv bosqichida sambo, dzyudo va kurash turlarida tayyorgarlik mexanizmi

Tayyorgarlik tizimi tarkibi		Sambo		Dzyudo		Kurash	
Sportchilar	Sport takomillashuv bosqichida sambochilar 17 yosh va undan katta. SU, yuqori darajada texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikka ega, katta jismoniy va ruhiy yuklamalarni ko'tara oladiganlar	Sport takomillashuv bosqichida dzyudochilar 17 yosh va undan katta. SU, yuqori darajada texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikka ega, katta jismoniy va ruhiy yuklamalarni ko'tara oladiganlar	Sport takomillashuv bosqichida bosqichida 17 yosh va undan katta. SU, yuqori darajada texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikka ega, katta jismoniy va ruhiy yuklamalarni ko'tara oladiganlar	Sport takomillashuv bosqichida bosqichida 17 yosh va undan katta. SU, yuqori darajada texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikka ega, katta jismoniy va ruhiy yuklamalarni ko'tara oladiganlar	Sport takomillashuv kurashchilar bosqichida 17 yosh va undan katta. SU, yuqori darajada texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikka ega, katta jismoniy va ruhiy yuklamalarni ko'tara oladiganlar		
Murabbiylar	Xalqaro kurash turlari vositalari orqali mashg'ulotlarni integral tayyorgarlik uslubiyati va yuqori malakali sportchilar tayyorgarligini ilmiy ta'minlash uslubiyatini yaxshi o'zlashtirgan murabbiylar						
Tayyorgarlik maqsadi	Yuqori natijalarga erishish uchun sambo kurashining vosita va usullarini takomillashtirish	Xalqaro maydonda yetakchi sportchi holatini ushlab turish uchun mashg'ulotlarni variativ o'tkazish				Terma jamoalarga zaxira sportchilarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali sport mashg'ulotlarini rejalashtirish	
Musobaqa va mashg'ulot jarayonlarida psixologik tayyorgarlik	Yuqori natijalarga erishishda motivatsiya berish va sezgi, diqqat, raqibni his qilish kabi xususiyatlarini shakllantirish	Mashg'ulot va musobaqalar jarayonida o'z-o'zini nazorat va boshqarish qobiliyatini tarbiyalash				Musobaqa sharoitlariga psixologik idrokni oshirish, yuqori natijalarga erishish, ongillik va mustaqillik darjasini oshirish	
Texnik-taktik tayyorgarlik	Hujum, himoya va qarshi hujum harakatlari samaradorligini oshirish	Harakatlar kombinatsiyasini takomillashtirish				Raqibning xususiyatiga qarab bellashuvni olib borish taktikasini olib borish	
Tiklanish vositalar	Dush, hammaom, sauna, massaj, fizioterapiya, ruhiy – gigiyenik, farmakologik vositalar, faol dam olish						
Kutilayotgan natijalar	Maksimal sport natijalariga erishish va uni keyinchalik ham oshirishga bo'lgan intilishining mavjudligi. Milliy terma jamoa tarkibidan mustahkam o'rin egallash						

Ushbu jadvalda sport takomillashuv bosqichida sambo, dzyudo va kurash turlarida tayyorgarlik dasturi berilgan bo‘lib, unda tayyorgarlikning maqsad va vazifalari tayyorgarlik turlarini rivojlantirish hamda tiklovchi vositalardan foydalanish uslubiyati berilgan. Xalqaro kurash turlariga tayyorlashdagi katta murabbiylik tajribasi, shu sportchilarga xos va mos bo‘lgan xususiyatlarni, tayyorgarlikning bo‘sh va kuchli tomonlarini har tomonlama o‘rganishga, tayyorgarlikning eng samarali uslublari va vositalarini, mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish variantini aniqlashga yordam beradi. Bu o‘z navbatida mashg‘ulot jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish hamda shuning hisobiga sport natijalari darjasini ushlab turish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Kurash va sambo kurash vositalarini optimal birlashtirish asosida yakkakurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirish”** – deb nomlangan to‘rtinchi bobida sambo, dzyudo vositalarini birlashtirgan holda kurash turi bo‘yicha kurashchilar mashqlarining tajriba dasturi mazmuni, kurashchilarning texnik-taktik natijalari ishonchliligi o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida aniqlandi. Ma’lumki zamonaviy kurash turlarida musobaqa faoliyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar turli darajadagi musobaqalarda sportchilar tomonidan bellashuv vaqtida tezkor qarshi hujumlarni qo‘llanilishida maxsus jismoniy, texnik tayyorgarlik bilan integratsiyalashning o‘rni beqiyosdir. Kurashchilarni tayyorlashni milliy kurash va sambo kurashi vositalarini birlashtirish asosida ishlab chiqilgan tajriba dastur samaradorligi darajasini aniqlash. Kurashchilarning trenirovka jarayoni natijalarini tahlil qilish birgalikda bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi: birinchidan, taqqoslanayotgan sport turlari – kurash va samboning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi testlar orqali baholangan jismoniy sifatlar ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari dinamikasi bo‘yicha, ikkinchidan esa, tajriba guruhning ko‘rikdan o‘tkazilayotgan kurashchilar sport-texnik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar yo‘nalishi va xarakterini baholovchi maxsus testlar natijalariga ko‘ra amalga oshirildi. Kurashchilarni tayyorlash dasturning tuzilishi sport kurashi amaliyotiga umumiy qabul qilingan qoidalarni kiritish, unga kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi jarayonini rivojlantirish va amalga oshirishning yanada zamonaviy jihatlarini joriy etish imkonini berdi. Ishlab chiqilgan tajriba dasturni trenirovka jarayoniga joriy etish ijobiy natijalarga erishishga imkon berdi, ularning ahamiyati ushbu bobning keyingi paragraflarida keltirib o‘tilgan. Kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi bo‘yicha tajriba dasturining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, bir yillik trenirovka davri doirasida ishlab chiqilgan ushbu dastur alohida mezo- va mikrotsikllarga darajalangan. An’anaga ko‘ra, asosiy struktura birligi sifatida beshta trenirovka mashg‘ulotlarini o‘z ichiga olgan haftalik mikrotsikl qabul qilingan. Bunday trenirovka rejasi har bir mashg‘ulotning mazmuni, uning asosiy yo‘nalishi, usullarini ko‘proq realizatsiya qilishni va har bir trenirovka topshirig‘ining sof vaqtini o‘z ichiga oladi.

Kurashchilarining haftalik mikrosikli uchun taxminiy mashg'ulotlar rejasi (n=21)

Mikrosikli kunlari	Mashg'ulotlarning afzallik yo'nalishlari		Trenirovka-ning asosiy metodlari	Mashg'ulotlar mazmuni		Mashqni bajarish vaqti (daqiqqa)	
	2	3	3	4	5	6	6
1							
Dushanba	Tezkorlik-kuch darajasini oshirish	sifatlari	Takroriy-intervalli	Oyoq-qo'llar chigilini yozish Gimnastika jihozlari yordamida mashqlar bajarish Sakrash mashqlari: yuqoriga, chuqurlikka sakrash Turgan joyida uzunlikka sakrash Faqat yuqori samarali hammlar baholanadigan o'quv-mashg'ulot bellashuvlari. Raqib bilan bajarish muddati qisqartirilgan yoki uzaytirilgan mashqlarni amalga oshirish.	40 20 20 24 30		134
Seshanba	Epchillik va koordinasion qobiliyatlar oshirish	darajasini	Bir-biriga bog'langan usullar	Oyoq-qo'llar chigilini yozish Mashqlar: Oyoqlar yordamisiz arqonga tirmashib chiqish Raqibni almashtirish bilan sparring-raqib kurashi o'yin formallari Maxsus harakat sifatlarning rivojlanishi: Kurash ko'prigida 10 marta aylanish (s) 10 marta beldan oshirib otish (s) 5 marta egilib otish O'tish sifatlari baholanadigan o'quv-mashg'ulot bellashuvlari.	40 20 24 30 (10) (10) (10) 30		174
Chorshanba	Faol dam olish		Tiklanish	Stretching mashqlari. Sport o'yinlari Hammon, massaj, sauna	80		80

5-jadvalni davomi.

Payshanba	Tezkorlik-kuch sifatleri darajasini oshirish	Takrorlash usuli Intervalli	Aerob qismidan taqdim etilgan chigil yozish mashqlari – sport zali aylanasi bo‘ylab yugurish Gimnastika jihozlari yordamida mashqlar bajarish: osilib turish, sakrash, cho‘zilish mashqlari, Yelkasiga raqibini mindirib, 10 marta o‘tirib turish Turnikka tortilish. Yotgan holda qo‘llarni bukish (soni) Shtanga bilan mashqlar bajarish Kurash ko‘prigida mashqlar bajarish Beldan oshirib otish va egilib otish. O‘quv-mashq bellashuvlari	40 20 10 10 20 20 12 12	144
Juma	Maxsus chidamlilik darajasini oshirish	Bir-biriga bog‘langan intervalli-aylanma usul	Oyoq-qo‘llar chigilini yozish 10 marta oldinga umbaloq oshib tushish (s) Maxsus trenajyorlarda mashqlar bajarish Kurashning o‘yin shakllari Kurash ko‘prigida mashqlar bajarish Sparring-raqiblarni almashtirish bilan intervalli-aylanma usul bo‘yicha mashq bellashuvlari	40 10 30 20 20 24	144
Shanba	Koordinasion qobiliyatlar darajasini oshirish	Takroriy Intervalli	Oyoq-qo‘llar chigilini yozish Raqibni qiyalatib, engashib va beldan oshirib otish Mashq qilish manekenini engashib otish O‘quv-mashq bellashuvlari Bo‘sh, tajribasiz kurashchi bilan o‘quv-mashq bellashuvlari	40 30 20 20 14	124
Yakshanba	Faol dam olish	-	Hammom, massaj, sauna	Jami	800 daq.

Tadqiqot davomida davriy test sinovlari o‘tkazildi, uning natijalariga ko‘ra, asosiy pedagogik tajriba davomida kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi testlarida ko‘rsatkichlar dinamikasini taqqoslash mumkin bo‘ladi. Ushbu taqqoslash kurashning har xil turlarining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan va kurashchilarning asosiy jismoniy sifatlari dinamikasini aks ettiruvchi ma’lumot beruvchi va yetarlicha ishonchli bo‘lgan 10 ta test yordamida amalga oshirildi.

